

“+1 SIM karta sovg’aga” Aksiyasi qoidalari

“+1 SIM karta sovg’aga” aksiyasi (keyingi o’rinlarda — Aksiya) «Humans» MChJ (100047, O’zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko’ch., .2B uy, STIR 306624856) tomonidan o’tkazilmoqda va noma’lum shaxslar guruhiga yo’naltirilgan.

1. AKSIYA HAQIDA MA’LUMOT

1.1. Ushbu Qoidalarda foydalaniladigan bosh harfli so’zlar atamalar hisoblanadi. Atamalar ma’nosi Provayder tomonidan tasdiqlangan va www.humans.uz saytida joylashtirilgan Humasn aloqa xizmatlarini ko’rsatish Shartlarida, hamda Tariflar tavsifida va Humans Sodiqlik dasturida keltirilgan, agar ushbu Qoidalarda boshqa ma’no talqin qilinmagan bo’lsa.

1.2. Aksiya ishtirokchisi – ushbu Qoidalarning 2 bo’limida keltirilgan amallarni bajargan Mijozlar.

1.3. Aksiya o’tkazilish hududi: O’zbekiston Respublikasi.

1.4. Aksiya o’tkazilish davri: 18.09.2024 - 18.10.2024.

2. AKSIYA TAVSIFI

2.1. Aksiya o’tkazilish davrida bitta SIM-kartaga (keyingi o’rinlarda — «Asosiy SIM-karta») «+1 sovg’aga» qatoridan Tarif paketini xarid qilgan Aksiya ishtirokchisi ikkinchi xuddi shunday Tarif paketli SIM-kartani (keyingi o’rinlarda — «Bonus SIM-karta») sovg’aga olishi mumkin, agar uni Asosiy SIM-karta rasmiylashtirilgan bir xil JShSHIRga rasmiylashtirsa.

2.2. Bonus SIM-kartaga Tarif paketi birinchi Hisob davriga 100% chegirma bilan ulanadi, keyin Tarif paketni uzaytirish odatiy narxda amalga oshiriladi.

2.3. Bonus SIM-karta Asosiy SIM-karta faollashtirilgandan so’ng 30 (O’ttiz) daqiqa ichida faollashtiriladi, faqat agar Asosiy SIM-kartadagi Tarif paket to’langan va Asosiy SIM-karta faollashtirilgandan so’ng 30 (O’ttiz) daqiqa ichida faol holatga o’tgan bo’lsa.

2.4. Bitta Ishtirokchi Aksiyada uning JShSHIRga rasmiylashtirilgan 5ta (Beshta) Shartnoma bo’yicha bir vaqtda aloqa Xizmatlari ko’rsatish sharti bilan ishtirok etishi mumkin. Asosiy va Bonus SIM-karta bo’yicha aloqa Xizmatlarini ko’rsatish keltirilgan Shartnomalar soniga kiradi.

2.5. Yuqorida 2.1-2.4 bandlarda keltirilgan talablarga rioya qilinmagan, hamda quyidagi holatlarda Aksiya Shartlari bajarilmagan hisoblanadi va Bonus SIM-kartaga Tarif paketi ulanmaydi:

- Aksiya qoidalariga rioya qilinganlik shartlarini tekshirish vaqtida Bonus SIM-kartada narxi 0dan ko’p bo’lgan amaldagi Tarif paket mavjud;

- Asosiy va Bonus SIM-kartani faollashtirish orasida 30 (O'ttiz) daqiqadan ko'proq vaqt o'tgan;
- 30 (O'ttiz) daqiqa oralig'ida bitta JShShIRga ikkitadan ortiq SIM-karta faollashtirilgan;
- Asosiy va Bonus SIM-kartalar bo'yicha Shartnomada JShShIR ma'lumotlari farq qilganda.

3. YAKUNIY QOIDALAR

3.1. Ushbu Qoidalar Provayder Saytida joylashtirilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Provayder bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgaritirish yoki Aksiyani bekor qilish huquqiga ega. U buni tegishli xabarni Saytda joylashtirish yo'li orqali xabardor qiladi. Saytda tegishli ma'lumotni joylashtirish sanasi xabarnoma sanasi hisoblanadi. Saytda tegishli ma'lumot joylashtirilgan vaqtdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya esa bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Aksiya o'tkazilishi davrida ushbu Qoidalarning 2 bo'limida keltirilgan shartlarga muvofiq

«+1 sovg'aga» Tarif paketini ulash jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan Oferta hisoblanadigan ushbu Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz rozilikni anglatadi.